XALQ DEPUTATLARI HAZORASP TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 19-mart VII-29-40-12-174-K/26 Hazorasp tumani

2026-yilda Hazorasp tumani hududida alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-387-son qarori ijrosini ta’minlash, shuningdek, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Hazorasp tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 25-dekabrdagi “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ–1105-sonli Qonunining 9-ilovasiga muvofiq 2026-yil uchun tovarlarning ayrim turlari bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalari tasdiqlanganligi, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-387-son qarorining 2-band “v” kichik bandiga asosan xalq deputatlari tuman va shahar Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi hamda ushbu yig‘imlardan tushadigan mablag‘lar to‘liq hajmda tegishli tuman (shahar) budjetlariga yo‘naltirilishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2026-yil uchun Hazorasp tumani hududida alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno)

realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im stavkalariga kiritiladigan o‘zgartirishlar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Hazorasp tumani hokimining birinchi o‘rinbosari J.Ro‘zimov tuman davlat soliq inspeksiyasi (J.Allayrov) bilan birgalikda mazkur qarorning o‘z vaqtida va samarali ijrosini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari J.Usmonova “Hazoraspnoma” gazetasi hamda tuman hokimligi bosh yuriskonsulti B.Matyoqubov bilan hamkorlikda:

mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirsin;

ommaviy axborot vositalarida, jumladan “Hazoraspnoma” gazetasida rasmiy e’lon qilinishini ta’minlasin.

5. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kamida uch oydan keyin kuchga kiradi.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya” raisi Q.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **QURYOZOV SUXROBBEK MATCHANOVICH**

Xalq deputatlari Hazorasp tumani
Kengashining
2026-yil 19-martdagi
VII-29-40-12-174-K/26 -son qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Hazorasp tumani hududida alkogol mahsulotlarini (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (*bundan pivo mustasno*) realizatsiya qilish uchun yig‘im stavkalari

№	Yig‘im turi	Bir oyga chegaralangan stavkalar (so‘mda)		
		Bazaviy stavka *(O‘RQ-1105 25.12.2025 y. 9-ilova)*	Qo‘llanilgan koeffitsiyent *(1,2 gacha)*	2026-yil uchun yig‘im stavkasi
1	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	300 000	1,2	360 000
2	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig‘im	150 000	1,2	180 000